

“ PSIXIK VA NUTQIY RIVOJLANISHDAN KECHIKKAN BOLALAR DIAGNOSTIKASI”.

Odilov Husniddin

Andijon davlat pedagogika instituti Maxsus pedagogika (logopediya) 1-bosqich magistr talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixik-nutqiy rivojlanishdan kechikkan bolalarning rivojlanish xususiyatlari, diagnostika prinsiplari, yoʻnalishlari va zamonaviy baholash usullari yoritilgan. Diagnostika jarayonida kompleks yondashuvning ahamiyati, differensial tashxisning talabi hamda korreksion reja tuzishda diagnostik maʼlumotlarning oʻrni ilmiy asosda bayon etiladi.

Kalit soʻzlar: psixik rivojlanish, nutqiy rivojlanish, diagnostika, logoped, kognitiv jarayonlar, fonematik tizim.

Abstract: This article discusses the developmental characteristics, diagnostic principles, directions, and modern assessment methods of children with delayed psycho-speech development. The importance of an integrated approach in the diagnostic process, the need for differential diagnosis, and the role of diagnostic data in developing a correction plan are scientifically explained.

Keywords: mental development, speech development, diagnostics, speech therapist, cognitive processes, phonemic system.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности развития, принципы и направления диагностики, а также современные методы обследования детей с задержкой психоречевого развития. Научно обоснованы важность комплексного подхода в диагностическом процессе, необходимость дифференциальной диагностики и роль диагностических данных в разработке плана коррекции.

Ключевые слова: психическое развитие, речевое развитие, диагностика, логопед, когнитивные процессы, фонематический аппарат.

KIRISH

Psixik va jismoniy rivojlanishda nuqsonga ega boʻlgan bolalar diagnostikasi kursi maxsus fan boʻlib, bolalarning rivojlanishdagi nuqsонlarni erta aniqlash, boshqa unga oʻxshash holatlardan farqlashga, diagnozini aniqlashga, tegishli maxsus muassasalarga yuborishga va u yerda oʻzlariga mos taalluqli korreksiyalarga yoʻnaltirilgan oʻquv-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishga imkon beradi.

Rivojlanishda nuqsонni boʻlgan bolalarni iloji boricha erta aniqlash va tegishli maxsus muassasalarga yuborishning zarurligi shundaki, umumtaʼlim maktablarida rivojlanishda turli nuqsонlari boʻlgan bolalarning koʻpchiligi oʻqiydilar va ushbu maktab dasturini oʻzlashtirishga qiynaladilar, oʻzlashtirib olmaydilar.

Tegishli organlar va defektologlarning vazifalari shundan iboratki, bolalar oʻzlarining aqliy, bilim imkoniyatlariga va hissiy-idoraviy doiralarining xususiyatlariga mos sharoitda taʼlim olishlari, tarbiyalanishlariga imkoniyat yaratib berishlari lozim.

Inson rivojlanishining ilk bosqichlarida psixik va nutqiy rivojlanish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayonlar bolaning shaxsiyati, ijtimoiy muhitga moslashuvi va bilim olish jarayonlariga asos bo'ladi.

ASOSIY QISM.

Psixik-nutqiy rivojlanishning me'yordan orqada qolishi bolaning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishida turli murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Bunday buzilishlar bolalarning kommunikativ qobiliyatlarining susayishiga, ijtimoiy aloqalarda cheklovlarga va o'qish jarayonida qiyinchiliklarga olib keladi.

Shu sababli psixik-nutqiy rivojlanishning buzilishlarini erta aniqlash, ularni tahlil qilish va to'g'ri korreksion-pedagogik yordam ko'rsatish zamonaviy ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarining dolzarb masalalaridan biridir.

Psixik-nutqiy rivojlanishda ortda qolishning turli shakllari mavjud bo'lib, ular organizmning genetik omillari, onaning homiladorlik davridagi salbiy omillari, tug'ruq jarayonidagi asoratlar va tashqi muhit ta'siri bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda bu turdagi buzilishlar «nutqiy rivojlanishning umumiy kechikishi», «psixik rivojlanishning kechikishi» va «nutqning sistemali buzilishi» kabi atamalar bilan tavsiflanadi.

Bunday bolalar rivojlanishida emotsional-behaviorial o'zgarishlar, e'tibor va xotira sustligi, o'rganishdagi qiyinchiliklar kuzatiladi, bu esa ularni maxsus pedagogik yordamga muhtoj bo'lgan toifaga kiritadi. Mamlakatimizda psixik-nutqiy rivojlanishda ortda qolgan bolalarni aniqlash va ularga maxsus ta'lim xizmatlarini ko'rsatish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu borada maktabgacha ta'lim muassasalari, maxsus ta'lim muassasalari va psixologik-pedagogik markazlar faoliyat olib bormoqda. Ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va uni milliy tizimga moslashtirish orqali psixik-nutqiy rivojlanishda orqada qolgan bolalarga samarali yordam ko'rsatishning yangi yondashuvlari ishlab chiqilmoqda.

Mazkur maqolada psixiknutqiy rivojlanishda ortda qolgan bolalarning rivojlanish xususiyatlari, diagnostika va korreksion-pedagogik yondashuvlarning asosiy tamoyillari tahlil qilinadi. Psixik-nutqiy rivojlanishdan kechikish sabablari:

Prenatal omillar: homiladorlik davrida infeksiyalar, toksik ta'sirlar

Perinatal omillar: asfiksiya, tug'ruq jarayonidagi shikastlar

Postnatal omillar: bosh miya jarohatlari, nevrologik kasalliklar

Ijtimoiy-pedagogik omillar: kommunikatsiya yetishmovchiligi, pedagogik qarovsizlik
Bu omillar miya rivojlanishi va nutq markazlarining funksional faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Diagnostikaning maqsadi:

- rivojlanish kechikish darajasini aniqlash.
- nutqiy komponentlar holatini baholash.
- psixik jarayonlardagi buzilish manbasini topish.
- individual korreksion dastur ishlab chiqish.

Psixik-nutqiy rivojlanishda ortda qolgan bolalar bilan olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, erta diagnostika va tizimli korreksion-pedagogik yordam ularning rivojlanishida muhim ijobiy o'zgarishlarni ta'minlaydi.

Ushbu bolalarning nutqiy, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishida sezilarli kechikishlar aniqlansa-da, individual va guruh mashg'ulotlari orqali bu muammolarni bartaraf etish mumkin.

Diagnostika jarayonining to'g'ri tashkil etilishi, zamonaviy psixologik-pedagogik metodlardan foydalanish, maxsus ta'lim dasturlari bolalarning intellektual va emotsional rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, bolalarning rivojlanish darajasi turli omillarga, jumladan, korreksion mashg'ulotlarning sifatiga, oilaning qo'llab-quvvatlash darajasiga va ijtimoiy muhitga bog'liq.

Empirik tahlilning birinchi bosqichida aniqlangan rivojlanish kechikishlari tadqiqotning ikkinchi bosqichida amalga oshirilgan korreksion yondashuvlar yordamida sezilarli darajada kamaygani kuzatildi. Bu natijalar psixik-nutqiy rivojlanish kechikishini bartaraf etish uchun tizimli va kompleks yondashuvning muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

XULOSA.

Psixik-nutqiy rivojlanishdan kechikkan bolalarning diagnostikasi — tizimli, kompleks va ilmiy asoslangan jarayon bo'lib, bolaning nutqiy va psixik rivojlanishidagi kamchiliklarni erta aniqlash va bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi. Vaqtida tashxis qo'yish orqali korreksion rehabilitatsiya samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Волкова Г.А. Логопедия. — Москва, 2020.
2. Жукова Н.С., Мастюкова Е.М., Филичева Т.Б. Нарушение речи у детей. — Москва, 2019.
3. Лалаева Р.И. Психолого-педагогическая диагностика детей с нарушениями речи. — Санкт-Петербург, 2021.
4. O'zbekiston Respublikasi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi" bo'yicha me'yoriy hujjatlar.
5. Yuldasheva N. Logopediya asoslari. — Toshkent, 2022.